

## ADABIYOT O'QITISHDA BADIY TAHLIL MUAMMOLARI

*Hamdamova Manzura Jurabayevna**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseyi  
oliy toifali o'qituvchi*

**Annotatsiya.** O'quvchida mustaqil fikrni va ijodiy-tahliliy fiklash ko'nikmasini shakllantirish bugungi ta'lim tizimining bosh g'oyalaridan biridir. Fikr tarbiyasi sinfxonalardagi dars va muloqotlardan boshlanadi. O'qituvchi asosiy kuchini bolada ijodiy fikrni, tahlil qobiliyatini shakllantirishga, fikriy mustaqillikni o'stirishga sarflashi kerak. Buning uchun o'quvchida mutolaaga rag'batni kuchaytirishga to'g'ri keladi. Maqolada o'quvchida mutolaaga qiziqish uyg'otish bilan birga tahliliy qobiliyatni shakllantirish yo'llari haqida fikr yuritiladi. Bu boradagi muammolar tilga olinib, ba'zi takliflar ham ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, adabiyot, badiiy tahlil, o'qituvchi malakasi, badiiy asar, tahlil turlari, badiiy tafakkur, adabiyot o'qitish.

Bugun ta'lim-tarbiya sohasidagi mutaxassislar oldiga ma'nau va jisman barkamol avlodni tarbiyalash vazifasi qo'yilyapti. Bu borada asosiy tayanch nuqta, shubhasiz, o'rta maktablar, akademik litsey va kollejlari hisoblanadi. Ayni shu bo'g'inda bola ma'naviyatining o'q ildizlari shakllanadi. O'quvchida shaxslik sifatlarini shakllantirishda esa o'z-o'zidan adabiyot fani hal qiluvchi o'ringa ega. Albatta, bu masalada o'quvchiga yozuvchi-shoirilar tarjimai holini yodlatish, asarlari sonini aniqlash emas, balki yozuvchining ijod va tafakkur dunyosiga kirish va shu orqali bola ongi va didini o'stirish asosiy maqsad bo'lmog'i kerak. Zero, go'zal badiiy asarlar o'quvchi fikrini boyitish va hissiyotlarini tarbiyalashning eng inja usulidir. Demak, bu yo'nalishda darslik va majmualardan o'rin olgan o'zbek va jahon adabiyoti durdonalarini mohirona tahlil qilishni yo'lga qo'yish mislsiz samaralar beradi. Mazkur natijaga erishishda esa ikki omil muhim:

1. Adabiyot o'qituvchisining malaka-mahorati
2. Ta'lim muassasasi kutubxonasining badiiy asarlarga boyligi

Birinchi omil oliy o'quv yurtlaridagi tanlov tizimining odilligi va mukammal mutaxassislar tayyorlashning qanday yo'lga qo'yilganligiga bog'liq. Sifatli oliy ta'lim, aniqki, sifatli mutaxassislar beradi. Lekin bu mutaxassis uchun o'qish-o'rganish tugadi degan gap emas. U o'rgatishni boshlashi bilan yanada ko'proq izlanish maasalasi uning oldida ko'ndalang vazifaga aylanadi. Negaki, ilm tinimsiz o'sib, yangilanib turadi. Jumladan, adabiyot ham. Aynan biz muammo sifatida ko'tarayotgan badiiy tahlil ham bugun alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib bo'lgan. G'arb va sharq adabiyotshunosligida bu yo'nalish bilan bog'liq ilmiy manbalar istagancha topiladi.

Savol tug'iladi: badiiy tahlilni adabiyotshunoslik fanining alohida yo'nalishi sifatida shakllanishiga qanday zarurat bor?

Bunga birinchi galda insoniyat tafakkur tarzidagi keskin o'zgarishlar sababchi bo'ldi. Ayniqsa insoniyatning ijodkor qatlamida inson va dunyoga nisbatan dogmatik qarashning barham topishi, o'z-o'zidan ular aytmoqchi bo'lgan gaplarni izohlash zaruratini keltirib chiqardi. Bu ilm hozir g'arbda interpretatsiya nomi bilan rivojlanyapti. Yana bir jihatni unutmaslik kerakki, badiiy tahlil ilmining darajasini, shubhasiz, ma'lum bir jamiyat adabiyotining sifati va boyligi belgilaydi. Lekin adabiyot fani mutaxassisi, xususan, pedagog o'z milliy adabiyoti darajasidan qat'i nazar mazkur fanning umumdunyoviy yutuqlaridan boxabar bo'lishi shart. Bugun dunyo adabiyotshunoslik ilmida struktural va psixologik tahlil uslublari keng rivojlanyaptiki, bu holat o'zbek adabiyotida ham o'z aksini topyapti. Yahgicha yo'nalishda yaratilgan badiiy mahsulot o'z-o'zidan unga yangicha tahliliy yondashuvni ham talab qiladi. Aytaylik, bugun modernizm yo'nalishida yozilayotgan asarlarni eskicha qoliplar bilan tekshirib bo'lmaydi. Zarurat bo'ladiki, bu yangicha ruhdagi badiiy asarlardan o'quvchini bahramand qilish maqsadida darsliklarga kiritiladi. Ana shunday vaziyatda o'qituvchining fan yangiliklaridan boxabarligi, o'qib-izlanib yurishi unga juda qo'l keladi. Bu esa adabiyot o'qitishda ta'lim sifatining bir necha baravar o'sishiga xizmat qiladi.

Xo'sh, badiiy tahlil degani nima o'zi? Adabiyot o'qitishda uning qanday zarurati bor?

Ilmiy manbalarda bu jarayonga quyidagicha ta'rif beriladi: badiiy asarning hayotiy va badiiy mantig'ini, estetik jozibasini ochishga qaratilgan faoliyat badiiy tahlil deyiladi. Bugun tahlilchilik ilmida badiiy tahlil bosqichlari, tamoyillari, tahlil yo'nalishlari kabi tushunchalar borki, bu soatlab mulohaza yuritishni talab qiladi. Biz tahlil turlari degan asosiy tushinchaga to'xtalgan holda bugungi adabiyot o'qituvchisining ayni sohadagi iqtidori bilan bog'liq kuzatuvlarimizni bayon qilsak.

Adabiyotshunoslik ilmida badiiy tahlilning ikki turi ajratiladi:

1. **Ilmiy tahlil**
2. **Oquv tahlili**

Tahlilning birinchi turi adabiyotshunos olimlar tomonidan amalga oshiriladi va mutaxassislarga havola etiladi. Ikkinchi tur tahlil esa ta'lim muassasalarida o'quvchilar uchun amalga oshiriladi. Bu tahlildan maqsad badiiy matnning estetik jozibasini ochish orqali o'quvchini asar o'qishga o'rgatish, unda o'qigan asarlarini tahlil qilish, badiiy asar haqidagi xulosalarini og'zaki va yozma tarzda ifodalay olish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat. O'quv tahlili ham o'z navbatida **individual**, **ommaviy** va **guruhiy** tahlil turlariga bo'linadi. Har bir o'quvchining badiiy asarga alohida munosabati individual tahlil hisoblanadi, guruhlariga bo'linib (aytaylik, yigitlar va qizlar guruhi) qilinadigan tahlil esa guruhiy tahlilni yuzaga keltiradi. Ommaviy

tahlil turi esa bugun sinfdagi eng faol tahlil turi hisoblanib, unda o'qituvchi biror bir asar yuzasidan hammaga savol tashlaydi va o'tirgan o'quvchilarning barchasi o'zicha javob beradi. Mazkur tahlilning yana muallifga ergashib yoki matniy tahlil qilish, timsollar asosidagi tahlil va muammoli tahlil kabi yondashuv usullari borki, o'qituvchining bundan boxabarligi adabiyot o'qitishning tayanch muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Keling, endi sinfxonalaridagi badiiy tahlil holatining o'zini bir tahlilga tortaylik. Uch yillik kuzatishlarimdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, bugun O'zbekiston ta'lim muassasalarida bu holat maqtanarli emas. Modomiki, maqsadimiz ma'nan barkamol avlodni tarbiyalash ekan, buni adabiyot fanini chuqur o'qitmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Adabiyot o'qitishning tub mohiyatida esa yosh avlodni ming yillik ma'naviy meros va hozirgi tafakkur tadriji bilan yaqinlashtirish yotadi. Ma'lum bo'ldiki, bugun o'qituvchining badiiy asar tahlili sohasidagi faoliyati o'quvchiga ma'lum asarni o'qitib shu asosda insho yozdirishdan nariga o'tmaydi. Ma'lumki, adabiy insholarda asar asosida olingan taassurotlar ijodiy tarzda yoritiladi va o'quvchining to'lig'icha badiiy matnga tayanishi shart hisoblanmaydi. Boz ustiga insho ilmiy tafakkur uchun emas, emotsional ifodalar uchun qulaydir. Asar tahlili esa o'quvchidan qaysidir darajada ilmiy va asoslangan munosabatni talab qiladi.

Yana bir yomon tomoni o'quvchi nazarida tahlil o'qilgan badiiy asar sujetini gapirib berishdan iborat, degan tushuncha muhrlanib qolyapti. Bu o'z-o'zidan o'quvchining fikri va didi o'sishiga xizmat qilmaydi, eng achinarlisi uni kitob mutolaasidan uzoqlashtiradi.

Inson psixologiyasi qiziq qonuniyatlar asosiga qurilgan: nimayiki bizga yiroq va begona – unga qiziqmaymiz. Yoki qalin o'ralgan qandning mazasini kimdir maqtasagina ochib yeb ko'ramiz. Aks holda tanlov imkoniyatining kengligi bois o'sha qandga parvo qilmasligimiz ham mumkin. Agar badiiy asarni qandga o'xshatsak uning "maza"sini avval o'qituvchining o'zi tuygan bo'lishi va shuning barobarida o'quvchida o'sha asarga nisbatan xohish va "ishtaha" paydo qila olishi zarur. Yo'qsa kitobga munosabat susayayotgan bir davrda o'quvchini nafaqat tahlildek nisbatan murakkab ilmiy jarayonga tortish, balki kitob o'qishga o'rgatishning o'zi muammoga aylanadi. Asarni o'qimagan sinfda esa tahlil o'z-o'zidan mantiqsiz faoliyat bo'lib qolaveradi. Chunki uslubchi olim professor Q. Yo'ldoshev yozganidek, tahlil faqat badiiy asarni o'qiganlar uchun amalga oshiriladi.<sup>1</sup> Demak, avvalo, o'qituvchining o'zi badiiy tahlil ilmi yuzasidan yetarli bilim, tayyorgarlik va malakaga ega bo'lishi zarur.

Adabiyot o'qitishda o'qituvchini oyog'idan chalayotgan yana bir muammo maktab, kollej va litsey kutubxonalarining kambag'alligidir. O'qituvchi o'quvchida biror bir asarni o'qishga qiziqish uyg'otgani bilan bola qo'lga adabiyot yetkazib

<sup>1</sup> Q. Yo'ldoshev. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent, 1996.

berilmasa urinishlar zoye ketdi , degan gap. Chunki bugungi iqtisodiy murakkab sharoitda ota-ona bolasiga darslikka kiritilgan barcha badiiy asarlarni olib berish imkoniga ega emas. Xususan, bizning Jahon iqtisodi va diplomatiya universiteti qoshidagi akademik litseyda miqdor jihatdan eng ko'p badiiy kitoblar bu A. Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" qissasi, A. Qodiriyning "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlari, P. Qodirovning "Yulduzli tunlar", Oybekning "Navoiy" asarlari bo'lib, ularning har birining adadi ham ottizdan oshmaydi. Vaholanki, dars rejasiga A. Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" qissasi kiritilgan bitiruvchi bosqich o'quvchilari soni 150 atrofida. Eng yomoni, sotib olishni yo'lga qo'ygan taqdirda ham badiiy kitoblarning tiraji juda kam, bu miqdor bilan respublikadagi barcha o'quvchilarni kitob bilan ta'minlab bo'lmaydi. Mazkur muammoli vaziyatni yumshatishi mumkin bo'lgan bir taklifni o'rtaga tashlamoqchiman. Endilikda chop etish rejalashtirilayotgan badiiy asarlarning xuddi ba'zi darsliklar kabi elektron variantlar (matn joylashgan disklar) ini ham sotuvga chiqarilsa ham nashr xarajatlari qisqarardi, ham o'quvchining foydalanishi uchun qulaylik yaratilgan bo'lardi. Bugun ko'pchilik xonadonlarda EHM larning mavjudligi va ta'lim muassasalarining kompyuterlashtirilganini e'tiborga olsak, muammoning vaqtinchalik yechimi ijobiy samara beradi deb hisoblash mumkin. Vaholanki, nashriyotlar bu boradagi dastlabki tajribalarga ham ega. Yana bir tomoni badiiy asarlarning disk varianti qog'oz variantiga nisbatan arzonga tushadi. Shuning barobarida ta'lim muassasalarida elektron kutubxonalar negizi ham shakllana boshlaydi. Shunda 30 ta kitobni 150 ta o'quvchiga taqsimlash muammoga aylanmas edi. Chunki kimdir kitobning o'zini olib o'qisa , uyida kompyuteri bor boshqa o'quvchi uning disk variantini olib o'qish yoki ko'chirib olish imkoniga ega bo'ladi. Albatta, bu muammoni faqat vaqtincha bartaraf qiladigan yo'l xolos. Aslida doimiy kitob javonimizni bezab turadigan badiiy asarning o'rnini hech narsa bosa olmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, modomiki, estetik didi baland, yuqori tafakkur qobiliyatiga ega, ruhiyati boy shaxslarni kamol toptirish adabiyot o'qitish bilan bevosita bog'liq ekan, biz oliy o'quv yurtlaridagi tanlov tizimini tog'ri yo'lga qo'yish va ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini boyitish orqali oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishsishimiz mumkin bo'ladi. Hozirgi kunda davlat budjetidan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish ham vaziyatni bir muncha yengillashtirishga xizmat qilishi mumkin.